TOSHKENT VILOYATI OLMALIQ SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2025-yil 15-yanvar | 16-10-147-Q/25 | Olmaliq shahar hokimligi

Olmaliq shahar hududidagi transport vositalarini 2025-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, shahar hududidagi transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va uni o‘tkazishni ta’minlash maqsadida,“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 21^1-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Shahar Ichki ishlar bo‘limining Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (O‘.Ismoilov) shahar hududidagi transport vositalarini majburiy yillik texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkillashtirsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 09-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan jismoniy shaxslarga tegishli M1 toifadagi transport vositalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari, normalariga muvofiqligi tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi ta’minlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘tiradigan joylari soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar – bir yilda ikki marta (2025-yil 1-martdan 30-iyungacha va 1-sentabrdan 31-oktabrgacha);

b) ishlab chiqarilganiga besh yildan ko‘p bo‘lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlaga kiradi) transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganiga besh yildan ortiq bo‘lgan transport vositalari, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniqlanmagan

transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) – bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi – shatakchisi uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Davlat yo‘l harakati xavfsizligida ro‘yxatdan o‘tkazilgan kundan boshlab ulardan foydalanishning birinchi yili mobaynida transport vositalari texnik ko‘rikdan o‘tkazilmaydi, (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilganlardan tashqari).

4. Mazkur qarorning 2-band “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-martdan 30-iyunga qadar;

ikkinchi marta – 1-sentabrdan 31-oktabrga qadar o‘tkaziladi.

Yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2025-yil 1-martdan 30-iyunga qadar, jismoniy shaxslarga qarashli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 2025-yil 1-yanvardan 31-avgustgacha o‘tkaziladi.

5. Korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2025-yilgi texnik ko‘rigidan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Korxona, tashkilot va muassasalarda davlat avtotransport vositalarini 2025-yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish tasdiqlansin.

7. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Begiyev va Toshkent viloyati hokimligining Yo‘lovchi transportining barcha turlari harakatini litsenziyalash va muvofiqlashtirish departamenti Olmaliq shahar vakiliga:

2024-yilni mart oyida yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash komissiyalari bilan hamkorlikda, yuridik shaxslar rahbarlarini jalb etgan holda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash hamda uni o‘tkazish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin va amalga oshirilishi ustidan nazorat o‘rnatsin;

- transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida shahar Ichki ishlar bo‘limining Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (YHXB), mudofaa ishlar bo‘yicha shahar bo‘limi vakillari va yuridik shaxslarning muhandis-texnik xodimlaridan iborat ishchi guruhlar tuzsin;

- shahar Ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (YHXB) bilan birgalikda faoliyati tugatilgan, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, tashkilot va muassasalar tasarrufida bo‘lgan transport vositalarini, tirkamalarni, yarim tirkamalarni aniqlash hamda ularni belgilangan tartibda hisobdan chiqarish choralarini ko‘rsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 28-fevraldagi “Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 294-sonli (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-yil 9-son, 64-modda) hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta’minlashga doir talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 482-sonli qarorlari (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plamlari, 2003-yil 21-son, 204-modda) talablarini ijrosini ta’minlash, yo‘lovchilarga samarali transport xizmati hamda ularning xavfsizligini

ta’minlash maqsadida, shahardagi barcha tijorat asosida yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar tasarrufida bo‘lgan avtobus va kichik avtobuslarning majburiy texnik ko‘rigi Olmaliq shahar IIBning Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasida o‘tkazilishi tashkillashtirilsin.

9. Shahar Ichki ishlar bo‘limining tegishli xizmatlari xodimlari, jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo‘lgan avtomototransport vositalarini to‘liq majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta’minlasin.

10. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvaliga asosan avtobus va kichik avtobuslarni majburiy texnik ko‘rikka tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha yuridik shaxslar rahbarlari va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilsin.

11. O‘rnatilgan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tmagan avtobus va kichik avtobuslardan foydalanish taqiqlansin.

12. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxona, muassasa va tashkilot rahbarlari majburiy texnik ko‘rik boshlanishidan kamida 10 (o‘n) kun oldin viloyat Ichki ishlar boshqarmasi “Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati boshqarmasining tumanlararo ro‘yxatlash va imtihon olish bo‘linmasi”ga (TRIB) mavjud transport vositalari haqidagi ma’lumotlarni taqqoslash uchun taqdim etsinlar va ularga texnik ko‘rik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lashni ta’minlash lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

13. “Kafolat”, “O‘zbekinvest” va “O‘zagrosug‘urta” davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyalari Olmaliq shahar bo‘limlari, shahar Ichki ishlar bo‘limi, Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi bilan hamkorlikda transport vositasining majburiy sug‘urta to‘lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undirish choralarini ko‘rsin.

14. “Olmaliq hayoti” (Ro‘ziyeva) va “Алмалыкский рабочий” (Salimova) tahririyatlari o‘z gazetalari orqali transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan sifatli o‘tkazish va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning asosiy garovi ekanligini targ‘ib qilib borish tavsiya etilsin.

15. Olmaliq shahar hokimining 2023-yil 22-dekabr kuni qabul qilingan “Olmaliq shahar hududidagi transport vositalarini 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 345-10-147-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

16. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

17.Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Begiyev zimmasiga yuklansin.

Olmaliq shahar hokimi **Q.Xamdamov**

Olmaliq shahar hokimining
2025-yil 15-yanvardagi
16-10-147-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahar korxona, tashkilot va muassasalardagi avtotransport vositalarini 2025-yilgi texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi

N.Sayidov	Komissiya raisi, Olmaliq shahar IIB boshlig‘i
O‘.Ismoilov	Komissiya raisi o‘rinbosari, IIB YHXB boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

M.Saidaliyev	Olmaliq shahar IIB YHXB katta inspektori
T.Mamatov	“Olmaliq KMK” AJ xodimi
S.Umarov	“Kafolat” sug‘urta kompaniyasi Olmaliq shahar bo‘limi rahbari
A. Aymatov	Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi inspeksiyasi boshlig‘i